



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE  
UNIVERSITY

**FarDU.  
ILMIY XABARLAR**

---

**IJTIMOIY GUMANITAR  
FANLAR**

---

**Scientific journal  
of the  
Fergana State  
University**



**1/2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya) VANG JIANSIN. (Xitoy)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
--	---	--

## Tahririyat kengashi

### IJTIMOY GUMANITAR FANLAR

EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston) XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston) TOJIBOYEV H. (O'zbekiston) O'RINOVA N. (O'zbekiston) ABBASOVA N. (O'zbekiston) DAVLYATOVA G. (O'zbekiston) G'OFLUROV A. (O'zbekiston) XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston) HOLMATOV B. (O'zbekiston) XAKIMOV N. (O'zbekiston) ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston) USMONOV B. (O'zbekiston) MAXMUDOV O. (O'zbekiston) QAHHOROVA M. (O'zbekiston) MAMATOV M. (O'zbekiston) QAMBAROV A. (O'zbekiston) AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof. FarDU, p.f.d.prof. Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc) FarDU, p.f.n.dots. FarDU, p.f.b.f.d(PhD) FarDU, p.f.n. FarDU, i.f.d.prof. FarDU, i.f.d.prof. FarDU, i.f.n. FarDU, f.f.d. dots. FarDU, t.f.d. FarDU, t.f.d (DSc) FarDU, t.f.d.dots Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)	SIDIQOV I. (O'zbekiston) YULDASHEV S. (O'zbekiston) G'ANIYEV B. (O'zbekiston) QOSIMOV A. (O'zbekiston) MAMAJONOV A. (O'zbekiston) ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston) SHUKUROV R. (O'zbekiston) ZOKIROV M. (O'zbekiston) MO'MINOV S. (O'zbekiston) YULDASHEVA D. (O'zbekiston) MAMAJONOV M. (O'zbekiston) KAXAROVA M (O'zbekiston) ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston) SABIRDINOV A. (O'zbekiston) RAHIMOV Z. (O'zbekiston) MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots. FarDU, f.f.b.f.d(PhD) FarDU, f.f.d.dots. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.n.dots. FarDU, f.f.n.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.doktori. FarDU, f.f.b.f.d.dots. FarDU, f.f.n.dots. FarDU, f.f.n. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.,dots FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
---	---	--	--

**Muharrirlar:**

Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:**

Raximov J.  
Mahmudov F.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Journalal.fdu.uz

Farg'ona, 2024

<b>B.S.Turdiyev</b>	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili .....	182
<b>B.E.Xusanov</b>	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari .....	187
<b>F.M.O'sarov</b>	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari.....	190
<b>F.F.Dadaboyev</b>	
Yangi O'zbekistonda tadbirdorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari .....	193
<b>Sh.Sh.Dadaxanov</b>	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	201

## SIYOSAT

<b>J.Q.Yusubov</b>	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi .....	206
<b>B.Yalgashev</b>	
"Siyosiy falsafa" va "Siyosat falsafasi" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari .....	210
<b>A.Xamdamov</b>	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati .....	214
<b>B.A.Usmonov</b>	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar .....	219
<b>A.Н.Адыгезалов</b>	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гуум .....	224
<b>F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova</b>	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni.....	231
<b>A.H.Boltayev</b>	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar.....	235
<b>G'.R.Mirzayev</b>	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi.....	239
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	249
<b>O.I.Rajabov</b>	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar .....	253
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в Туркестане в конце XIX в начале XX века .....	257
<b>H.S.Yusupov</b>	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati .....	262
<b>Sh.Y.Oxunjonova</b>	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillardar) .....	265
<b>A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev</b>	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim .....	272
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках .....	276
<b>G.X.Xasanboyeva</b>	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillardar).....	281
<b>X.P.Jurayev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari .....	285

**SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATIGA EGA BO'LGAN ZIYORATGOHLAR****SANCTUARY WITH HEALING PROPERTIES****СВЯТЫНИ С ЦЕЛЕБНЫМИ СВОЙСТВАМИ****Rajabov Oybek Iskandarovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan Xoja Ubbon va Xoja Za'faron qadamjolarining vujudga kelishi tarixi hamda ushbu ziyoratgohlarning shifobaxshlik xususiyatiga ega maskan ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ilmiy manbalar va dala tadqiqod materiallari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.*

**Аннотация**

*В данной статье на основе научных источников и материалов полевых исследований исследуется история святилищ Ходжи Уббана и Ходжи Зафаран, расположенных в Ромитанском районе Бухарской области, а также сведения о том, что эти святыни являются целебными местами. Научно-исследовательская работа построена на принципе историчности, хронологическом и сравнительном методах анализа.*

**Abstract**

*In this article, the history of Khoja Ubban and Khoja Zafaran shrines, located in Romitan district of Bukhara region, as well as information about the fact that these shrines are healing places, are researched based on scientific sources and field research materials. The research work is based on the principle of historicity, chronological and comparative analysis methods.*

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Qadimgi Romitan, Xoja Ubbon, Xoja Za'faron, qadamjo, ziyoratgoh, maqbara, masjid, quduq, chashma.

**Ключевые слова:** Бухара, Древний Ромитан, Ходжа Уббан, Ходжа Зафаран, святыня, святынище, мавзолей, мечеть, колодец, родник.

**Key words:** Bukhara, Ancient Romitan, Khoja Ubban, Khoja Zafaran, shrine, shrine, mausoleum, mosque, well, spring.

**KIRISH**

Buxoro vohasining tarixiy go'shalaridan biri hisoblangan Romitan qadimiy, betakror hududlardan biri bo'lib, uning shakllanish tarixi Afsonaviy hukmdor Afrosiyobga borib taqaladi. Ushbu diyor o'zining ko'p asrlik tarixida ulug' avliyolari Xoja Ubbon, Xoja Za'faron, Hazrat Bobo Laqlaqag'iy-Xoja Hazrat Niyozi Xorazmiy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Boboyi Samosiy, Hakim Mulla Mir hazratlari, shuningdek, Choriqulboy kabi saxovatpesha insonlari bilan mashhurdir.

Xoja Ubbon Ibn Usmon ziyoratgohi Buxoro shahrining shimoli-g'arbida 40 kilometrcha narida qum tepaliklar orasida joylashgan manzil bo'lib, bu ziyoratgoh, vohada ilk islom dini kirib kelgan davrdan buyon mavjud bo'lgan muborak qadamjolardan biri hisoblanib, maskanda XIV asrda ulkan tarixiy inshoot-chashmaxona buniyod etilgan [1,2,6]. Xoja Ubbon Ibn Usmon Ibn Affon VII asrning oxiri va VIII asr bosqlarida yashagan, tobein, faqih, muhaddis, qiroat sohibi, valiyulloh bo'lib, u kishiga Alloh taolo turli kasalliklarni davolash karomatini bergen. Xoja Ubbon Ibn Usmon Ibn Affon 644-656 yillarda xalifalik taxtiga o'tirgan Usmon Ibn Affon "Choriyor xalifa"lardan uchinchisining o'g'li sanaladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИI**

Muhammad Narshaxiyning 943-944 yillarda yozilgan "Buxoro tarixi" asarida Sa'id ibn Usmon Ibn Affon (xalifa Usmon ibn Affonning boshqa bir o'g'li) xalifalik tomonidan 676 yili Xuroson amiri etib tayinlangani hamda u Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga kelgani bitilgan. Xoja Ubbon Ibn Usmon Ibn Affon haqida XV asrda yashagan Ahmad ibn Mahmudning "Kitobi nazmi Mullozoda" asarida: Qabri Ubbon, ki Ibn Usmon ast, Manbai xush fayzi g'affaron ast, ya'ni: "Xoja Ubbon Ibn Usmonning qabri fayzli joy hisoblanadi", - deyiladi [7]. Xoja Ubbon Ibn Usmon Ibn Affon haqida Mir Muhammad Buxoriyning XVI asrda yozilgan "Ubaydullanova", Mulla Muhammad Obidjonning

“Tuhfatul obidin”, V.Shishkinning “Varaxsha”, S.Ayniyning “Esdaliklar”, B.Mashrab, A.Fitrat, S.Salim Buxoriy asarlarida boy ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Xoja Ubbon qadamjosining 1937-yilda tushirilgan fotonusxalari topildi. Maqbaraga kiraverishning o'ng tomonida, hozirgi kunda yangidan qurilgan toshquduq ustida qadimda to'rt gumbazli obi g'ishtdan qilingan chashmaxona bo'lgan [6,9,10]. Chashma ichida tosh quduq bo'lib, 20-22 metr chuqurlikdan suv olingan. Chashmaxona XIV asrda mohir ustalarining mehnati evaziga juda ixcham, yuksak mahorat va ulug'vorlik bilan buniyod etilgan. Afsuski u imoratlar hozirda saqlanib qolinmagan. Xoja Ubbon maqbarasi, chashmaxona, xonaqoh, tug' va sag'analar o'tgan asrning 60 yillari boshida minalar bilan portlatib yuborilgan. Avliyoning boshlari uchib ketib, ko'milgan joyda 2008-2010 yillarda eski yog'ochdan qilingan maqbara va sag'ana yangidan qurildi.

Xoja Ubbon ziyoratgohi joylashgan yassi tepalik qadimgi qishloqlardan birining xarobasi bo'lib, u Poykanddan Xorazmnинг qadimgi paytaxti Kat shahriga boradigan katta karvon yo'li ustida joylashgan. Shu sabab Xoja Ubbon shu atrof qishloq va aholi yashaydigan maskanlarning eng yiriklaridan biri bo'lgan. Asrlar davomida Zarafshon daryosi yuqori oqimi bo'ylab sug'oriladigan maydonlarning kengayib borishi oqibatida uning adog'ida joylashgan Xurmitan, Xoja Za'faron, Xoja Ubbon atroflariga suv bormay, XI asr oxiri-XII asr boshlarida bu qadimgi o'lka asta-sekin suvsizlikdan qurib, bepoyon Qizilqumga tutashib ketadi [3,4]. Xuddi shu davrda suv tanqisligi oqibatida Poykand shahri ham inqirozga yuz tutadi. Natijada Xoja Ubbon raboti orqali Poykandga o'tadigan karvon yo'li ham asta-sekin barham topadi.

Hozirgi kunda kelib Xoja Ubbon ziyoratgohi alohida majmua sifatida shakllantirilib, unda kirish darvozasi, maqbara, tosh quduq, mehmonxona hamda ayvon bitta majmuaga birlashtirilgan. Majmuada davolanishga kelganlar uchun alohida yotoqxona buniyod etilgan hamda bu ishlar hozirgi kungacha yana davom etib kelinmoqda. Qadamjoda ziyorat qilish, rasm-rusumlar, xayriya ishlarini tashkil etuvchilar uchun alohida joy ajratib qo'yilgan. Islom olamida ulug' avliyolarni ulug'lash va uning qabrini ziyorat qilish orqali xalq o'z orzu-umidlari, diniy e'tiqodlarini mustahkamlash, ulug' insonlarning qabrlariga ziyorat qilish orqali tasalli olish odat tusiga kirgan.

Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy (Xoja Za'faron) «Ming shahar» deb atalgan aholi gavjum bo'lib yashagan hududda joylashgan Qizilqir tepaligidagi shaharchada tug'ilib, shu hududda umurguzaronlin qilgan. Abu Komil al-Basiriyning «Al -Muzaffot» asarida keltirilishicha, Xoja Za'faron - Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy vohada shakllanayotgan islom dini o'z mavqeyini mustahkamlay boshlagan ilk davrda, VII-VIII asrlarda karomatpesha, hadis ilmi bilimdoni va targ'ibotchisi, tib ilmining qomusiy olimi, xalq tabobatining amaliy hamda nazariy rivojiga ulkan hissa qo'shgan tabib sanalgan [2]. Tarixiy manbalarning ma'lumotlarida, Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy (Xoja Za'faron) milodiy 740-yil (hijriy 123-yil)da vafot etganlar.

XX asrdagi ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'plab ma'lumotlar o'z tarixiy isbotini topdi. Jumladan, akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyaning 1957–1959-yillardagi Xoja Za'faron Ziyoratgohiga yaqin bo'lgan Qizilqir tepaligi ustida joylashgan shahar xarobalarida ilmiy izlanishlar olib borilib, Qizilqir I-II-III kabi tepaliklaridagi tadqiqotlarda eramizdan oldingi bir minginchi yillarda ushbu hududdan katta magistral kanal tarmog'i o'tganligini aniqlab, kanalga qurilgan suv taqsimlovchi to'g'on hamda ariqlarning izlari, qoldiqlarini topib, ilmiy jihatdan asoslab berildi [2,3,7].

XX asrning yana bir yetakchi arxeolog-qadimshunos olimi, akademik Abdulahad Muhammadjonovning «Quyi Zarafshon vohasining sug'orilish tarixidan» nomli kitobida Xoja Za'faron (Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy) ziyoratgohi hududi atrofida aholining o'troqlashib yashash sharoiti Zarafshon daryosining oxirgi o'zanlaridan oqib kelgan suvlar tufayli ekanligini ilmiy asoslarda yoritib berdi. Shuningdek, arxeolog V.A.Nilsen [8,9] boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan 1955-yilda Qizilqir shahar xarobalarida arxeologik tadqiqot ishlari ham olib borilib, tadqiqot natijalari to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar "O'zbekiston madaniyati tarixi" asarida to'liq aks ettirilgan.

Xoja Za'faron majmuasi joylashgan hudud ham Buxoro vohasining qadimdan aholi istiqomat qilib kelgan Varaxsha, Poykent, Vardonze va shunga o'xshash boshqa ko'plab tarixiy maskanlar kabi bir necha asrlar mobaynida shahriston va aholi yashaydigan qo'rg'onlar mavjud bo'lgan.

**TARIX**

Xoja Za'faron insonlarda uchraydigan turli xastaliklarini davolash usullarini puxta o'zlashtirgan ulug' tabib sanalgan. Jumladan, Xoja Za'faron ziyoratgohidagi minerallarga boy bo'lgan quduq suvi asrlar mobaynida shifobaxshligi bilan xalq tabobati an'analarining davom etishiga sabab bo'lgan. Bu tarixiy maskan hududida turli xildagi giyohlarga boy o'simliklar mavjudligi, iqlimi yumshoq, parranda-darrandalarga serob bo'lib, shifobaxsh suvi va tuprog'i sarg'ayma (sariq) kasalligi, jigar, o't pufagi, oshqozon va oshqozon osti bezi, ichak kasalliklari hamda boshqa ko'plab xasaliklarni davolashda yordam beradi [4,6].

Qadimdan insonlarning o'troq yashashi uchun ichimlik suvi asosiy manba hisoblanib, aholi gavjum istiqomat qiluvchi manzillarda quduqlar bunyod etilgan. Ushbu hududlarda yashab, insonlar orasida ilm-ma'rifikatda obro'-e'tibor topgan ulug' shaxslar, avliyo darajasiga etganlar va shu manzilgohlarda qo'nim topgan. Keyinchalik bu quduqlar ham shu avliyolar tufayli ilohiylashtirilgan va suvi ham muqaddas hisoblangan. Shu ma'noda Xoja Za'farondagi tosh quduq ham shu voqelikning yana bir dalili sanaladi. Mazkur muqaddas qadamjo necha asrlar o'tishiga qaramasdan, ushbu manzilgohga ziyoratchilarining qadami uzilmaydigan, muqaddas manzil - makon sifatida o'z mavqeyini yo'qtmagani.

Xoja Za'faron ziyoratgohida XX asrning 70-90-yillarda katta hovli, masjid, ayvon, maqbara qurilgan bo'lsa-da, bu binolar tarixiy - me'moriy ahamiyatga ega emas, maqbara qabriston ichiga qolib ketgan, ziyoratgohning o'zi esa mutlaqo tashlandiq va qarovsiz ahvolga kelib qolgan edi. Mustaqillikka erishilgandan co'ng, milliy o'zlikni anglash, o'tmish tariximizga xolisona baho berish, tabarruk qadamjolarni qayta tiklash, obodonlashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Xoja Za'faron muqaddas ziyoratgohida ham anchagina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, «Xoja Za'faron jamoatchilik xayriya jamg'armasi» tashkil etilib, unga shu maskan imom xatibi Amrullo Sultonov rahbarlik qiladi. Ushbu maskanda 2014-yil kuzidan boshlab, Romitan tuman hokimligi taklifi bilan Amrullo Sultonov yetakchiligidagi obodonlashtirish ishlari jadal rivojlandi. Bu maskanda amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari, xalqimizning xayr-saxovati natijasida, hashar yo'li bilan ziyoratgoh obod etildi.

Ziyoratgoh majmuasining atrofi to'liq devor bilan o'rab olindi. Mayjud eski imoratlar bузib olingen, avliyoning abadiyo qo'nim topgan joylari belgilab olinib, shu joyning aynan o'zida maqbara qad rosladi. Maqbara tomonlari 9x15 metrni, balandligi 16 metrni tashkil etib, qo'shqavatli gumbazdan iborat, yonida ziyorat qiluvchilar uchun alohida gumbazli xona ham qurilgan.

Muhammad ibn Vose' al-Buxoriy - Xoja Za'faron maqbarasi viloyatimizning yirik restavratori, tarixiy obidalar bunyod etishning hadisini olgan, betakror binokor usta Tag'i Obiddinov boshchiligidagi jamoa tomonidan qurib bitkazildi. Bu muhtasham inshoot Romitan tuman xalqining, qolaversa republikamizning turli maskanlaridan ziyorat maqsadida kelgan ziyoratchilarining beminnat ko'magida hashar yo'li bilan 2014-2015-yillarda bunyod etildi. Shuningdek, ziyoratgoh yonida ikki getkar maydonda ekobog' tashkil etish maqsadida mevali va manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Ulug' avliyo, tib ilmining bilimdoni sharafiga «Xoja Za'faron jamoatchilik xayriya jamg'armasi» tashkil etilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

**XULOSA**

Ulug' qadamjo, ziyoratgohlarni obod qilish, tariximizni chuqurroq o'rganish va teranroq anglash, yoshlarimiz tafakkurini yanada yuksaltirish, ma'naviyatini boyitish, ming yillardan buyon qon-qonimizga singib ketgan din-u diyonatni, urf-odat an'analarni, ezgu amal-udumlarni davom ettirish, xalqning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Chunki tarix xalqimiz ma'naviyatining asosi sanalib, uni avaylab-asrashga har birimiz mas'ulmiz.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Абу Тоҳирхўжа Самарқандий “Самария”(Самарқанд мозорлари зикри). Т., 2009.
2. Абу Саъд عبدالкарим ибн Мұхаммад ибн Мансур ат-Тамимиј ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). Т., 2017.
3. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т., 2015.
4. Ҳамро Асадов. Ажододлари қимматли юрт. Бухоро., 2011.
5. Истиқтол йиллари: миллый-диний кадриятларнинг халқقا қайтиши (Бухоро). Т., 2001.
6. Нарзулло Йўлдошев. Буҳородаги айрим авлиёлар тарихи. Бухоро., 1993.
7. Нарзулло Йўлдошев. Буҳоро авлиёларининг тарихи. Бухоро., 1997.
8. Насиленные пункты Бухарского эмирата (XIX-нач XX в). Ответственный редактор академии АНРУЗ А.Р.Мухаммедканов.Т., 2001.

9. Халқ туродиган жойларнинг рўйхати. Самарқанд Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссиясининг нашри, 1926 йил. Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айрим изохлар муаллифи Аҳтам Аҳмедов. Бухоро., 2017.

10. Суюндик Мустафо Нуротоий. Муқаддас зиёратгоҳлар (Ўзбекистонда қабрлари бўлган паёғамбарлар, саҳобийлар, тобеъинлар ва таба тобеъинлар). 1 том. Тошкент, 2018.